

## OMON MATJON SHE'RIYATIDA YULDUZ OBRAZI TAHLILI

**Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi**

Urganch davlat universiteti talabasi

[abdusharifovasarvinoz@gmail.com](mailto:abdusharifovasarvinoz@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada serqirra ijodkor Omon Matjonning lirik merosida keng qo‘llanuvchi peyzajik obrazlardan biri bo‘lgan yulduz obrazi shoir ijodiga mansub misralar orqali tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** peyzaj, yulduz obrazi, epitet, tahlil.

Omon Matjon – o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozi, o‘z nomi va o‘z mavqeyiga ega serqirra ijodkor. Shoir o‘z ijodiy fikrlarni ifoda etishda turli poetik figura, badiiy tasvir vositalari hamda timsollardan unumli foydalanadi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy obrazga quyidagicha ta‘rif bergan: “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san‘atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir. Albatta, bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlarini topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o‘zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir[1:90]. Badiiy obrazning bu xil tabiati, ya‘ni uning tamoman yangi mavjudlik kasb etishi shoir ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Omon Matjon lirik merosida fikr va mazmuni ochib beruvchi vosita sifatida, asosan, tabiat bilan bog‘liq timsollarga murojaat qiladi. Ya‘ni shoir ushbu obrazlar orqali she‘rlardagi lirik qahramonning ichki kechinmalari, uning xarakterini ochib berishda, shu jumladan, jamiyatdagi ayrim qusur va illatlarni yuzaga chiqarishda keng qo‘llanadi. Biz ushbu maqolada ijodkor lirikasida faol qo‘llanuvchi yulduz obrazini tahlilga tortamiz.

Shoirning “Ochiq derazalar” kitobidan olingan “Yulduzlar” she‘rida lirik qahramon yulduzlarga “sovuq yulduzlar” deya murojaat qiladi. O‘z navbatida shoir ushbu murojaat orqali epitet(yun. Epitheton – ilova etilgan, izohlovchi) – badiiy sifatlash; narsa-hodisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchi. Til nuqtayi nazaridan qaralsa, epitet hamisha aniqlovchi vazifasida keladi, lekin oddiy aniqlovchidan farqli ravishda, badiiy funksiyani o‘taydi: agar oddiy aniqlovchi narsa-hodisani bir turdagi boshqa predmetlardan ajratsa(yolg‘iz ayol), epitet unga xos muayyan belgini ajratib-ta‘kidlab ko‘rsatadi[2:363])ni yuzaga keltirgan:

Nega kuylamaysiz, sovuq yulduzlar,

Suluv hislar sizga emasmi pisand?

Yoki sizdan o‘zga olamdamanmi,

Istaklarim kabi emassiz xursand[3:14].

Shoirning ishq-muhabbatni talqin qiluvchi she’rida oshiq va suyukli yorning baxt tolelari yulduzga o‘xshatiladi. Xalqimizda: “Har kechaning kunduzi bo‘lgani kabi har kimning o‘z nasibasi, yulduzi bor”, -- degan gap bor. Go‘yo kimdir bu dunyoga kelsa, yulduzlar soni ortib, vafot etsa yulduzi so‘nadi. Omon Matjon ushbu she’ri orqali shu xalq tilidagi afsonaga ishora qiladi:

Yulduzimiz bormish ikkimizning ham,

Samo ungurida porlamish go‘yo.

Vaqt kelar va sovuq osmon qa’ridan

Ikkisi ham bo‘lar emish zim-ziyo[3:32].

Keyingi misrada lirik qahramon mahbubaga murojaat etar ekan, o‘z yulduzini, toleyini yorga baxshida qiladi, toki uning ishq yor ko‘ksida yonsin. Oshiq yorga o‘z iqbolini hadya qilib, o‘zining ko‘ksini yor uchun osmon etadi hamda undan ham hayot yulduzini ishonishini so‘raydi:

Yaxshisi, kel, jonim, men yulduzimni

Senga berib qo‘yay, yonsin ko‘ksingda.

Osmon ata sen ham mening ko‘ksimni,

Hayoting yulduzin ishongil menga[3:32].

Shoir “Mezon” deb nomlangan she’rida yulduz timsolini tilga olar ekan, mard insonlarning hayoti yulduz kabi porlaydi deya xulosa qiladi:

Ne derdim: fazolar qa’rida hatto

Yo‘l topgan mardlarning hayoti yulduz![3:11]

Yulduz – shoir nazdida qaysidir unut bo‘lgan joy. Ijodkorning ish-muhabbat tarannum etuvchi “O, tun – so‘lim dengiz...” deb boshlanuvchi she’rida yor bilan birga o‘tkazgan xotiralarini tunga, birga bo‘lgan, ammo unut bo‘lgan joyni yulduzga qiyoslaydi:

Tun dengizmas, go‘yo olis xotira,

Yulduzot qaysidir unut bo‘lgan joy...[3:31]

Yulduzlar – yuksak osmonning farzandlari. Tunda dengiz tiniq bo‘lgan paytda unda oy va yulduzlarning ko‘rinishi tabiiy hol, albatta. Ijodkor salqin dengizni samoga qiyoslaydi. Xuddi osmonda ko‘ringan kabi yulduzlar ham unda aks etadi. Dengiz kaftida yulduzlar mavjlanadi:

Kaftida yulduzlar mavjiga boqib,

Samo – salqin dengiz yotardi sokin[3:34].

Shoir ushbu misralarda jonlantirishning go‘zal namunasini keltirgan: dengizning kaftidagi yulduzlarning mavjlanishi, ularning jimirlashiga boqib, sokin yotishi o‘ziga xos badiiy topilma, shoirning novatorligidan dalolat beradi.

“Munojot tog‘i” she‘rida lirik qahramonning gunohlari shu qadar ko‘pki, go‘yo ular yulduzlar kabi son-sanoqsiz, chegarasiz:

Gunohlarim balki tog‘-tog‘,

Balki ular yulduzlarcha bor... [3:69]

Shoir she‘rlarining aksariyatida yulduz timsoli ramziy ma‘noda qo‘llanadi. Jumladan, mazkur to‘rtlik band(to‘rtlik band – folklordagi qo‘shiq va terma, mumtoz adabiyotdagi ruboiy va qit‘a kabi janrlarda keng qo‘llanilgan to‘rtlik banddan o‘zbek shoirlari she‘riyatning turli janrlarida keng foydalanganlar...To‘rtlik bandning qofiyalanish tartibi ham shoirning g‘oyasiga, niyati va topag‘onligiga yarasha o‘zgarib turadi. To‘rtlikda eng ko‘p uchraydigan qofiya sxemasi – *ababdir*[4:232])da ham yulduzlar ramziy ma‘no ifoda etib, unda quyosh-o‘zining ilm-u g‘ayratini sohib, qora tunni nurafshon etgan, o‘zlarini chiroq etib, ziyo taratgan shaxslarning ramzi, yulduzlar bo‘lsa o‘z fikrlari, ilmi, bilimi bo‘la turib, osmonni yotitmagan, ezgu ishga bosh qo‘shmagan, shu tahlika ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan kimsalarning ramzi bo‘lib xizmat qilgan:

Zim-ziyo ko‘rgach falakni oftob,

O‘zligin tun mulkiga etdi chiroq.

Yulduzot bosh qo‘shmadi bu g‘alvaga,

Qoldi to zulmat aro ko‘zdan yiroq[3:81].

Omon Matjon nafaqat nazmda, balki nasrda ham o‘zining fikrini o‘quvchiga teran yetkazib beradi. Shoirning “Quyosh soati” kitobi ham ana shunday ahamiyatga molik asarlar sirasiga kiradi. Ijodkor ushbu kitobda yulduz timsolidan foydalanar ekan, unga ijobiy xislat yuklaydi. Yulduz – osmon saltanatini tun zulmatidan qutqaradi, uni tong nomli bekatga eltib, keyin so‘nadi. Demak, uning qiladigan ishi ezgulik:”Ufq tepasida bir yulduz bor. Osmon saltanatini tun zulmatidan shu yulduz qutqaradi, uni tong ismli bekatga eltib, keyin...so‘nadi[5:88]”.

Omon Matjon – she‘rni obrazli ifodalashda yetuk qalam sohibi. Ijodkor o‘xshatish she‘riy san‘atidan mohirona foydalanib, yulduzlarni “zargardan yangi chiqqanday, samo rastasida yorqin yoyig‘liq” deya ta‘rirlaydi. Bu holatni ko‘rgan oy esa o‘zining kemptikligini ko‘rib, yuragi dog‘lanadi, unda dog‘ paydo bo‘ladi:

Yulduzlar, zargardan yangi chiqqanday,

Samo rastasida yorqin yoyig‘liq.

Bu hafta bezovta yurdi andak oy,

Kentikligin o‘ylab yuragi dog‘liq[6:8].

Ushbu bandda o‘xshatish, jonlantirish she‘riy san‘atlari qo‘llangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Omon Matjon o‘zining she‘rlarida biror obrazdan foydalanar ekan unga butunlay yangicha ma‘no qirralarni yuklaydi, uni badiiy topilma darajasiga ko‘taradi. Shu jumladan, shoir lirikasida qo‘llangan yulduz timsoli ham ana shunday ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. D.Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Omon Matjon. Seni yaxshi ko‘raman. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005.
5. Omon Matjon. Quyosh soati. Nasrdagi nazmlar. –Toshkent:”Yosh gvardiya”, 1974.
6. Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995.